

VOL 4. ISSUE 9



JOURNAL OF CONTEMPORARY WORLD STUDIES



zenodo


OpenAIRE | EXPLORE

ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

ISSN:
3030-3311

VOLUME | 4 ISSUE | 9 | APRIL | 2026



O'ZBEKISTONDA "YASHIL IQTISODIYOT PRINSIPLARI" VA EKALOGIK AUDIT VA ISTIQLOL RIVOJLANISHNI TADBIQ ETISH

Safarov Otabek Abdulla o'g'li


International School of finance technology And science instituti "Buxgalteriya hisobi" kafedrası o'qituvchisi
e-mail: otabek1272@gmail.com

ANNOTATION:

Bugungi kunda global miqyosda sanoatning barqaror rivojlanishini ta'minlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi sanoat tarmoqlarini ekologik jihatdan toza texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish, resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitga minimal zarar yetkazishni ko'zda tutadi. Ushbu maqolada sanoatni yashil iqtisodiyot asosida rivojlantirish yo'llari tahlil qilinadi.

KEYWORDS:

Sanoat, yashil iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot tamoyillari, barqaror rivojlanish, hududlar, sanoatni yashillashtirish, atrof-muhit muhofazasi, mintaq, sanoat taraqqiyoti.



April 28, 2026,
Published Date:
April 30, 2026

Journal Website:

<https://d-pressa.com/index.php/jcws/>

License



This work is licensed under a [Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/)

Kirish

Yashil iqtisodiyotning joriy qilinganligi darajasi mintaqalar va mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilab berar ekan, albatta, har bir mamlakat va uning mintaqalari ishlab chiqarishning ushbu bosqichiga o'tishi talab etiladi. Mamlakat va uning mintaqalarida yashil iqtisodiyotni joriy qilish ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy rivojlanishini belgilab berar ekan, har bir mintaq va mamlakat ushbu bosqichga tezroq va samarali o'tishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Sanoat tarmoqlarining rivojlanishi va takomillashib borishi mamlakat mintaqalarida iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarining rivojlanishi darajasini belgilab beruvchi ahamiyatga ega. Sanoatning innovatsion rivojlanishi mamlakatlar va ularning mintaqalaridagi iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanish darajasini belgilab beradi. Jahon iqtisodiyoti Kovid-19 pandemiyasida katta zarar ko'rishi bilan birga, postpandemiya sharoitida iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida hamda tarmoqlar ichida rivojlanish tendensiyalari katta o'zgarishga yuz tutdi. Hozirgi zamon sanoatlashuvining o'ziga xos muhim jihati yuqori texnologik va innovatsion rivojlanish hamda raqamlashuvning keng joriy qilinayotganligidir. Sanoat boshqa tarmoqlarga qaraganda, ayniqsa, qishloq xo'jaligiga nisbatan ko'proq ish o'rinlarini yaratganligi hamda mehnatga haq to'lashda nisbatan yuqori ko'rsatkichga egaligi bilan farqlanadi. Jahon sanoat ishlab chiqarishi raqamlashib, yuqori texnologik ishlab chiqarishga transformasiyalashib bormoqda. YuNIDO mutaxassislarining fikricha sanoatda bandlik ko'rsatkichlari ortib borishi qashoqlikni bartaraf etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi va BMT ning barqaror rivojlanish maqsadlariga

erishishda muhim yo'llardan biri bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi va uning mintaqalarida yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari tadqiq etilmagan. Sanoatning raqamlashishi va yashillashishi darajalari iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarining ham ularga bog'liq holda xuddi shunday raqamlashishi va yashillashishi darajasiga bevosita ta'sir o'tkazadi. Sanoatning yashillashuvi darajasi ishlab chiqarish jarayonlarining va texnologik darajaning yuqori sifatini talab etadi, bu o'z navbatida iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari, jumladan, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining yashillashishini hamda texnologik jihatdan murakkablashishiga imkon yaratadi. Shu sababdan, aynan sanoatning yashillashishini tezlashtirish, boshqa tarmoqlarning yashillashishi darajasini oshiradi. Mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirishda yashil iqtisodiyotni joriy qilishning nazariy-ilmiy asoslarini hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda ishlab chiqish mazkur masalaning dolzarb mavzuligini namoyon qiladi.


Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror o'sish maqsadlarida sanoatning yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlanishi masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng tadqiq etilmagan. Bu yo'nalish iqtisodiy faoliyatda yangi yo'nalish bo'lganligi bois, jahon iqtisodichi-olimlari tomonidan boshqa yo'nalishlarga nisbatan kam tadqiq etilgan. Shunga qaramasdan, qator olimlar bu yo'nalishda tadqiqotlar olib borishgan va olib bormoqdalar. Xususan, E.A.Mo'minova o'z tadqiqotlarida O'zbekistonda sanoat tarmog'ining rivojlanishi, erkin iqtisodiy hududlarning ko'payishi, eksport mahsulotlarining ortishi natijasida atrofmuhitga ta'sir darajasi o'rganilgan. Sanoat korxonalari tomonidan

chiqarilayotgan chiqindilar insonga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ekologik muammolar yuzaga keltirishi va butun dunyoda sanoatning rivojlanishi yashil iqtisodiyotga o'tish zarurligi bayon qilingan. A.A.Isadjanovning tadqiqotlarida O'zbekistonda tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilishda BMTning «Barqaror rivojlanish» konsepsiyasining ahamiyati, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish maqsad va vazifalari yoritilgan. Alohida e'tibor "Yashil" iqtisodiyotni shakllantirish, "yashil" o'sish va rivojlanishni rag'batlantirishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida mavzu yuzasidan O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmonlari, asarlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, iqtisodiy,

ijtimoiy, siyosiy sohalaridagi taniqli olimlarning ilmiy asarlari, ularning mazmun, mohiyati o'rganilib, mavzuni ochib berishda mavjud.


Sanoat O'zbekistonda iqtisodiyotning barqaror rivojlanib borayotgan sohalaridan biridir. Mamlakat iqtisodiyoti tarixida sanoat uzoq yillar tog'-kon sanoati, qazib oluvchi sanoatga ixtisoslashgan va qo'shilgan qiymat ulushi juda past tarmoqlardan bo'lib kelgan bo'lsada, 2016 yildan keyin ushbu sohada ham qo'shilgan qiymat ulushini oshirish, qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. Sanoatning YaIMdagi ulushi so'nggi 4 yilda 26-27 foiz atrofida saqlanib turibdi. Sanoat indeksi 2022 yilda 2010 yilga nisbatan 194,6 foizga o'sgan holda, bu ko'rsatkich tog'-kon sanoatida 130,3 foizga, qayta ishlovchi sanoatda 232,9 foizga o'sgan. Shu bilan birga, hududlar kesimida sanoatning ko'rsatkichlari turli yo'nalishlarda mintaqalar orasida keskin tafovut hanuzgacha saqlanib qolmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri viloyatlarning hududiy ixtisoslashuvidir.



1-rasm. Umumiy sanoat ishlab chiqarishda hududlarning o'rtacha ulushi (2018- 2022 yillar o'rtacha)

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yalpi sanoat mahsuloti tarkibida hududlarning ulushi keskinligi saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, Toshkent shahri (18,4 foiz), Toshkent viloyati (17,4 foiz) va Navoiy viloyati (15,7 foiz) ulushlari boshqa hududlarga nisbatan juda katta hissaga ega bo'lib, respublika sanoat ishlab chiqarishining asosiy quvvatlari ushbu mintaqalarda joylashganini ko'ramiz. Shu bilan birga Surxondaryo viloyati (1,3 foiz), Jizzax viloyati (1,7 foiz), Xorazm viloyati (2,8 foiz) va Sirdaryo viloyati (2,3 foiz) ulushi juda pastligi bilan ajralib turadi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichi respublikada so'nggi 5 yil (2018-2022 yillar)da 2 martadan ortiq o'sdi. 2018 yilda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi o'rtacha 7,1 mln so'm bo'lgan bo'lsa, 2022 yil yakuni bilan bu ko'rsatkich o'rtacha 15,5 mln so'mni tashkil etdi. Hududlar bo'yicha bu raqamning taqsimlanishi ko'rib chiqsak, bunda viloyatlar o'rtasida katta tafovut mavjudligini ko'ramiz (2- rasm).



2- rasm. Hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichi (2022 yil)

Rasmdagi ma'lumotdan ko'rinmoqdaki, Navoiy va Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishi boshqa hududlarga nisbatan ancha yuqori ko'rsatkichlarga ega. Energetika tarmog'i sanoat tarmoqlari ichida yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida mintaqalar barqaror rivojlanishini belgilab beruvchi muhim va asosiy sohalardan biri bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 dekabrda PQ-436-sonli Qarori bilan sanoat tarmoqlarida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va energiya tejamkorligini ta'minlash

bo'yicha konsepsiyasi hamda 2022-2026 yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida yoqilg'i-energetika resurslarini tejashning maqsadli parametrlari tasdiqlandi. Mazkur Qarorga asosan, respublikadagi 25 ta korxona va tashkilotda ishlab chiqarilgan mahsulotning energiya sig'imi ko'rsatkichini 2022- 2026 yillarda yoqilg'i-energetika resurslari iste'molchilari tomonidan 3,9 mlrd. metr³ tabiiy gaz, 4 mlrd. kVt. soat elektr energiyasi va 21 ming tonna neft mahsulotlarini tejash orqali energiya sig'imlik darajasini 20 foizga kamaytirish belgilangan.

Elektr energiyasini hududlarga barqaror etkazib berish, aholini zamonaviy energiya ta'minoti tizimi bilan ta'minlash mamlakatning energiya sohasidagi islohotlarning bosh maqsadi bo'lib hisoblanadi. Hozirda elektr bilan ta'minlashda hududlarda ayrim hollarda uzilishlar sodir bo'lsada, mamlakat aholisining 100 foizi elektr energiya bilan ta'minlanganligi O'zbekistonning dunyo reytinglarida bu muhim ko'rsatkich borasida yaxshi natijalarga egaligidan dalolat beradi. Olib borilayotgan samarali islohotlar natijasida 2016-2022 yillarda energiya bilan barqaror ta'minlashda ijobiy natijalarga erishildi, 5 ming MVt hajmda yangi quvvatlar ishga tushirildi, bu o'tgan davrga nisbatan 1,5 marta ko'pdir, 45 ming km elektr tarmoqlari liniyasi va 13 ming ta transformatorlar yangilandi, bu 2015 yildagiga nisbatan 3,5 marta ko'pdir. Elektr energiya ishlab chiqarish hajmi 2015 yilda yillik 57,7 mlrd kVt/soat dan 2022 yilda 73,1 mlrd kVt/soat gacha, ya'ni 1,26 barobarga oshganini ko'ramiz. Sanoat mahsulotlari tarkibida tog'-kon sanoati – 9,5 foiz, ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari – 83,2 foiz, elektr, gaz-bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 6,8 foiz, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 0,5 foizni tashkil etmoqda.

Ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlari tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish hamda ta'mirlash – 20,3 foiz, metallurgiya – 23,2 foiz, to'qimachilik, kiyim va teri mahsulotlari ishlab chiqarish – 17,9 foiz, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlari – 17,2 foiz, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa mahsulotlari – 9,2 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining texnologik darajasi bo'yicha tahlil qilsak, unda yuqori va o'rta-yuqori texnologiyali mahsulotlarning ulushi juda kamligini ko'ramiz. 2022 yilda ishlab

chiqarilgan sanoat mahsulotlarining 38,3 foizi quyi texnologiyali, 36,4 foizi o'rta-quyi texnologiyali, 23,2 foizi o'rta-yuqori texnologiyali va 2,1 foizi yuqori texnologiyali mahsulotlar tarkibiga kiradi. O'zbekiston mintaqalarida sanoatning rivojlanishida uning tarmoqlari orasida qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari katta ulushga ega. So'nggi 3 yilda ushbu tarmoqlarning mamlakat YalMidagi ulushi barqaror rivojlanib 20 foizga etdi.

Mazkur soha tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga va bularda tegishli ishchi o'rinlarining yaratilishiga oziq-ovqat (shu davrda 27 foizga o'sdi), tekstil va to'qimachilik (shu davrda 47 foizga o'sdi) sanoati tarmoqlari o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shdi. Ayniqsa, kimyo (16 foiz), metallurgiya (24 foiz) va mashinasozlik (30 foiz) tarmoqlari ancha barqaror rivojlandi. Sanoatni rivojlantirish bilan bir qatorda mamlakat mintaqalarining eksport sahohiyatini ham maksimal darajada oshirish bo'yicha islohotlar olib borilmoqda. 2019 yilda mamlakat yalpi eksporti tarkibida mineral yoqilg'i va paxta xom ashyosining umumiy ulushi 26 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2021 yil yakunlari bo'yicha bu ko'rsatkich 17 foizni tashkil qildi. Eksport sohasida mintaqalarda qo'shilgan qiymat darajasi nisbatan yuqori bo'lgan mahsulotlarni eskportga yo'naltirishga urg'u berilmoqda. O'zbekiston sanoat rivojlanishi yuqori intensivlikda bo'lmagan mamlakatlardan hisoblanishi bilan birga mazkur tarmoqda yashil iqtisodiyot tamoyillari kam shakllangan mamlakatlardan sanaladi. Mamlakatda yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida ishlab chiqarishni rivojlantirish yangi yo'nalish bo'lib, asosan 2017 yildan keyin e'tibor qaratila boshlandi.

Mazkur yo'nalishda huquqiy-me'yoriy asoslar ham yaqin o'tmishdan shakllanib kelmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni hamda 2017 yil 26 maydagi PQ 3012 sonli “2017-2021 yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish. Yana bir muhim indikatorni tahlil qilsak, unda ham pasayishni kuzatamiz. Umumiy elektr energiyasi ishlab chiqarish tarkibida qayta tiklanuvchi energiya manbalari (QTEM) hisobidan elektr energiya ishlab chiqarishning ulushi ham pasayib bormoqda. 2016 yilda jami ishlab chiqarilgan elektr energiya tarkibida QTEM dan ishlab chiqarilgan elektr energiya ulushi 11,6 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2022 yilda uning ulushi 6,8 foizni tashkil qildi. Muallif buning asosiy sabablaridan biri sifatida sohada haligacha investision cheklovlarining mavjudligini, tarmoqqa etarli darajada investisiyalar kiritilmayotganida deb hisoblaydi. Tahlillar ko‘rsatmoqdaki, sohaga kiritilayotgan investisiyalarning jami investisiyalarga nisbatan ulushi 2018 yildagi 12,4 foizdan 2022 yilda 7,8 foizga tushgan.

2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining “Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi” da iqtisodiyotni ekologiyalashtirish sohasida quyidagilar mamlakatda yuzaga kelgan ekologik muammolarning asosiy echim yo‘llari sifatida belgilangan:

- resurslardan foydalanishni optimallashtirish va tabiatni muhofaza qilish faoliyatining samaradorligini oshirish, shuningdek, “yashil infratuzilma”ni yaratish;

- milliy iqtisodiyotni suvdan tejab foydalanish, qayta tiklanadigan energiya texnologiyalarini rivojlantirish va keng qo‘llashni rag‘batlantirishga yo‘naltirib o‘zgartirish, shuningdek, yuqori energiya

samarador standartlar asosida inshootlar barpo etish;

- ekologik jihatlarining davlat sektoral siyosatiga, shu jumladan, rejalar, dasturlar va boshqa strategik hujjatlarni strategik ekologik baholash mexanizmini joriy etish, shuningdek, alohida loyihalarning atrof muhitga ta‘sirini baholash orqali integratsiyalashuvini ta‘minlash;

- ekotizimlarning qayta tiklanish imkoniyatlari va potentsial sig‘imini baholash parametrlarini ishlab chiqish hamda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni rejalashtirishda ushbu parametrlarni hisobga olish tartib-taomilini joriy etish;

- xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar faoliyatini ekologik sug‘urtalash va ekologik auditdan o‘tkazish tizimini tatbiq etish;

- atrof muhitning sifatini belgilovchi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha xalqaro standartlarga (BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi, YeI va boshqalar) o‘tishni ta‘minlash;

Respublikada sanoatning ko‘lamini kengaytirish bilan bir qatorda uni yashillashuv, ekologiyalashuv yo‘nalishlarida rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlar mavjud. Shunday yo‘nalishlardan biri bu quyosh energiyasidan elektr energiyasi ishlab chiqarishdir. 2021 yilning 27 avgust kuni Navoiy viloyatida O‘zbekistonda birinchi quyosh elektr stantsiyasi ishga tushirildi. Uning quvvati 100 mVt. Mazkur korxona yiliga 252 mln. kilovat elektr energiya ishlab chiqaradi. Mazkur inshoot bir yilda 80 mln. kub metr tabiiy gaz iste‘molini tejash bilan birga atmosferaga chiqadigan issiqxona gazlarini 160 ming tonnaga kamayishiga asos bo‘ladi.

O‘zbekiston quyosh energiyasiga boy mamlakat hisoblanadi, bu erda 525-760 mlrd. kVt/soatlik salohiyat jamlangan.

Ushbu salohiyatni inobatga olib qayta tiklanuvchi manbalar hisobiga elektr energiya ishlab chiqarishni 2018 yildagi jamiga nisbatan 10 foizdan 2030 yilga borib 25 foizga etkazish ko'zda tutilgan.

Energiyani samarasiz ishlatish oqibatida O'zbekiston YaIMi har yili o'rtacha 4-4,5 foizi yo'qotishga uchramoqda. Mamlakat energiya tashuvchi tizimlarining 40 foizi o'z muddatini o'tab bo'lgan va ma'nan hamda jismonan eskirgan. Hozirgi mavjud energiya tashuvchi resurslar zahirasi 2030 yilga borib keskin kamayadi hamda bu resurslarning katta taqchilligi kuzatiladi. Tadqiqotlar ko'rsatmoqdaki, mamlakat hududida qayta tiklanadigan energiya resurslari manbalari 270 mln. tonna shartli yoqilg'iga teng bo'lib, bu yillik energiya iste'moliga nisbatan 3 karra ko'pdir. Ushbu manbalarning katta qismini quyosh energiyasi tashkil qiladi. So'nggi 10 yil ichida jahon bozorida quyosh energiyasi narxi 80 foizga pasaygan. O'zbekistonda bunday energiyaning narxi yanada ham arzonroq bo'ladi, sababi, mamlakatda quyosh radiatsiyasi yuqori, yorug'ligi balanddir. Respublika sanoatida kimyoviy ishlab chiqarish va tog'-kon sanoati ustunlik qiladi. Bu tarmoqlar mamlakatda iste'mol qilinadigan energiyaning chorak qismini, shuningdek tabiiy gazning 80 foizga yaqin qismini tasarruf etadi.

O'zbekiston jahondagi sanot tarmog'i eng ko'p resurs talab qiluvchi mamlakatlardan biri bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga mamlakatda sanoat tarmog'i atrof-muhitni eng ko'p ifloslantiruvchi sohalardan ekanligi ma'lum. Sanoat oldida nafaqat chiqindilarni kamaytirib, atrof-muhitni ifloslanishni pasaytirish, resursstejamkor ishlab chiqishga o'tish masalasi, balki, ekologik sof ishlab chiqarishga, innovatsiyalar va raqobatbardosh kadrlar malakasiga asoslangan global ishlab chiqarish

jarayonlaridagi tezkor o'zgarishlarga moslashib borish masalasi ham dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabrdagi "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/4574008/>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 maydagi "2017-2021 yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi PQ-3012-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/3221897/>
3. Зеленое восстановление и переход к зеленой экономике в Узбекистане. <https://www.uz.undp.org/docs./Green-Recovery/>
4. Burxonov, S., Khamidov, O., & Yavmutov, D. (2023). Buxoro viloyatida sug'oriladigan erlardan samarali foydalanish muammolari va ularni yaxshilash yo'llari. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 41(41).
5. ЯВМУТОВ, Д. Ш., БУРХОНОВ, Ж., & КАРИМОВА, К. (2023). ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТНИ ҚЎЛЛАШДА ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИ ВА УНИ ЎЗБЕКИСТОНДА ЖОРИЙ ҚИЛИШ ИМКОНИЯТЛАРИ. "Экономика и туризм" международный научноинновационный журнал, 2(10).
6. Dilshod, Y., & Sardor, B. (2022). O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISH: ISTIQBOL YO'NALISHLAR VA USTUVOR VAZIFALAR. Journal of new century innovations, 10(2), 159-168.

7. Shoimardonkulovich, Y. D., & Kadirovna, S. N. (2022). GREEN FACTOR OF ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 23, 102-104.

8. Юлдошева, Б. М. (2021). ЭКОЛОГИК МУАММОЛАР: ХАЛҚАРО ҲАМЖАМИЯТ МУНОСАБАТИ ВА ТАРИХИЙ ЁНДАШУВ: Юлдошева Бибиражаб Миржоновна Бухоро давлат университети докторанти. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (5).